O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH

JAZONI O‘TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026

UO‘K 343.154.5-048.32(575.1)

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Ochilov Samariddin Kamoliddinovich
Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni takomillashtirish.....5-22

Очилов Самариддин Камолиддинович
Совершенствование условно-досрочного освобождения от отбывания наказания.....23-44

Ochilov Samariddin Kamoliddinovich
Improving Conditional Early Release from Serving a Sentence ……...45-49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 50-52

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

OCHILOV SAMARIDDIN KAMOLIDDINOVICH

JAZONI O‘TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Yu1336 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.proacademy.uz) va “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Xurshid Akramovich** yuridik fanlar doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Xolikulov Umid Shodiyevich** yuridik fanlar doktori, professor
	Achilov Izzat Tulkinovich yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02. raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 19-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.: +99871-202-04-96); e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya ishi bilan O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (102-raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9-uy. Tel.:(+99871)-202-04-96.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 06-noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 06-noyabrdagi 21-raqamli reestr bayonnomasi).

V.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Sh.I. Shayzakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

G‘.M.Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ozodlikdan mahrum qilish muassasalarida saqlanayotgan mahbuslar soni 10,7 million kishidan ortiq ekanligi, birlamchi ma'lumotlarga ko'ra, jahon qamoqxona tizimlarining 60 foizdan ortig'i belgilangan sig'imdan oshgan holda faoliyat ko'rsatayotganligi[1] ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash amaliyotini kengaytirishni taqozo etmoqda. AQShda 2024-yil oxirida 3 681 900 nafar[2] shaxs jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan bo'lib, ularning 50 foizdan ortig'i tomonidan probatsiya nazorati qoidalari buzilishi kuzatilgan. Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda 2025-yil boshida 1 433 011 nafar[3] shaxs jazoni ijro etish muassasalaridan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan bo'lib, ular tomonidan takroriy jinoyatlar sodir etilishi 55 foizga oshganligi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni takomillashtirish dolzarb masalalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Jahonda mahbuslar jazoni o'tashni boshlagan vaqtda yoki muayyan minimal muddatni o'tagandan so'ng jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod etilish huquqiga ega bo'lish vaqtini va qaror qabul qilishda qo'llaniladigan mezonlarni bilishlari kerakligi[4] ilgari surilganligi, jazoni o'tashdan shartli ozod qilingan shaxslarni muassasaga qaytarish yoki jazoni o'tashdan shartli ozod qilishni bekor qilish holatlari ko'payib borayotganligi sababli[5], jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyoti nafaqat tadqiq etilishi, balki isloh etilishi zarur bo'lgan institut sifatida e'tirof etilmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan muqobil jazolarni tayinlash hamda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyotini qo'llashni kengaytirish jinoyat va jinoyat-ijroiya qonunchiligini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Jinoyatchilik va odil sudlov siyosatini tadqiq qilish instituti[6] ma'lumotlariga ko'ra, mahbuslar soni bo'yicha dunyo mamlakatlari reytingida O'zbekiston Respublikasi 166-o'rinda qayd etilib, har yuz ming kishiga to'g'ri keladigan ozodlikdan mahrum etish joylaridagi shaxslar soni 85 nafarni tashkil etgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda 2025-yilda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan mahkumlar 35 572 nafarni,[7] probatsiya nazoratiga olinganlar 89 719 nafarni, ulardan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinganligi munosabati bilan probatsiya nazoratiga olinganlar 31 121 nafarni[8] tashkil etgan.

---

[1] World Prison Population List. World Prison Brief. Institute for Crime & Justice Policy Research. www.icpr.org.uk

[2] Bureau of Justice Statistics. https://bjs.ojp.gov

[3] Council of Europe's 2025 Annual Penal Statistics on Prison Populations (SPACE II). https://a1plus.am

[4] Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasining a'zo davlatlariga jazoni o'tashdan shartli ozod etish to'g'risidagi Tavsiyalari Rec (2003)22. (Yevropa Kengashi Vazirlar Qo'mitasi tomonidan 2003-yil 24-sentabrda vazirlar o'rinbosarlarining 853-majlisida qabul qilingan). Umumiy qoidalar 5-band. https://search.coe.int/cm

[5] Yvon Dandurand, Jeff Christian, Danielle Murdoch, Robert E. Brown, Vivienne Chin. Conditional Release Violations, Suspensions and Revocations. A Comparative Analysis. The International Centre for Criminal Law Reform and Criminal Justice Policy. ISBN 0-9730432-7-3. November 2008. 58 pgs, Pg 36-37.

[6] Institute for Crime and Justice Policy Research: World Prison Brief Database [URL: prisonstudies.org].

[7] Sudlar faoliyati bo'yicha statistik ko'rsatkichlar (jinoyat ishlari). www.stat.sud.uz

[8] O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya boshqarmasining 05.06.2026-yildagi 41/628-sonli xati.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinganlar probatsiya nazorati ostiga olinganlarning salmoqli qismini (35 foizini) tashkil etayotganligi hamda ushbu amaliyotni qo‘llash samaradorligini oshirish zarurati jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga taqdim etish mexanizmi, uni qo‘llash mezonlari va asoslarini tadqiq etishni taqozo qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi (2023), Jinoyat kodeksi (1994), Jinoyat-ijroiya kodeksi (1997), “Probatsiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-938-son Qonuni (2024), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3723-son (2018), “Jinoyat-ijroiya qonunchiligi tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4006-son (2018), “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-1-son (2026), “2026-yilda respublika mahallalarida jinoyatchilikning barvaqt profilaktikasi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2-son (2026) qarorlari, “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son (2026) Farmoni va sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning ayrim jihatlariga D.Y.Payziyev, I.Ismailov, M.A.Radjabova, M.Usmanaliyev, M.X.Rustambayev, N.S.Salayev, U.Sh.Xolikulov, X.A.Karimov, Sh.D.Xaydarov kabi olimlarning ilmiy ishlarida e’tibor qaratilgan.

Tadqiqotchi-olimlardan B.K.Adilov, T.X.Altmishev va T.Kuchkarovlar tomonidan ayrim turdagi jinoiy jazolarni ijro etishning o‘ziga xos xususiyatlari, B.T.Aslanov va Z.A.Amirovlar sudlangan shaxslar va mahkumlar xulq-atvorining ayrim jihatlari, Z.Turabayeva voyaga yetmaganlarni jazodan ozod qilish masalalari, E.O.Turg‘unboyev jazodan ozod qilish turlari va D.A.Xalilov jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish bo‘yicha tadqiqot olib borganlar.

Xorijiy mamlakatlar olimlaridan Tonri Maykl, Nikola Padfild, Jerry Maknil (Buyuk Britaniya), Pyer-Viktor Turnye (Fransiya), Joon Prat (Yangi Zelandiya), Joan Petersilya, Maykl Tonry (AQSh), D.A.Sherba, I.D.Badamshin, I.I.Yevtushenko, L.V.Yakovleva, M.A.Bogdanov, N.Y.Shatankova, O.A.Pipilenko (Rossiya Federatsiyasi) jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning turli jihatlari va parol tizimi bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borganlar.[1]

[1] Ushbu olimlarning asarlari dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Jinoyatchilikka qarshi kurashish, jinoyatlarni profilaktika qilish va uning oldini olish tizimini takomillashtirish muammolari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish asosida aniqlangan muammolarning yechimini topish hamda jinoyat huquqi nazariyasi va jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

– jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning ilmiy-nazariy jihatlari va ijtimoiy zaruriyatini o'rganish, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning huquqiy va ilmiy-nazariy tavsifini yoritish;

– jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish, ushbu amaliyotning rivojlanish tendensiyalarini o'rganish;

– jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlarining huquqiy tavsifi va o'ziga xos jihatlarini yoritish, mahkumni axloqan tuzalgan deb topish asoslarini belgilash yuzasidan taklif ishlab chiqish;

– jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari va shartlarini tahlil qilish hamda bu borada qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

– o'n sakkiz yoshga to'lmasdan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilingan mahkumlarga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llashning o'ziga xos jihatlarini yoritish;

– xorijiy mamlakatlar tajribasida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotini tahlil qilish, xalqaro tashkilotlar tavsiyalarini o'rganish;

– jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini o'rganish hamda bu borada mavjud muammolar yechimi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash jarayonida jinoyat qonunchiligi normalarini tatbiq etish natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarorlari hamda ularni qo'llash amaliyoti, shuningdek, yuridik fanda mavjud bo'lgan konseptual yondashuvlar, ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda tarixiy, tizimlilik, analiz va sintez, mantiqiy, statistik, qiyosiy-huquqiy tahlil, ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, amaliyot materiallarini tahlil qilish, milliy normalarni sharhlash, sud amaliyotiga oid materiallarni umumlashtirish, sotsiologik so'rovlar o'tkazish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sud mahkumga nisbatan belgilangan probatsiya choralarida nazarda tutilgan taqiq va majburiyatlarni yoki ulardan birini yuklashni joriy etishi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan mahkumlar xulq-atvori ustidan nazorat qilishning yangi mexanizmlari vujudga kelishiga xizmat qilganligi isbotlangan;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan muayyan turdagi shartlar, talablar va majburiyatlar yuklatilgan holda belgilangan muddat davomida nazorat o‘rnatilishi mahkumlar xulq-atvori ustidan nazorat o‘rnatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishiga imkoniyat berishi asoslantirilgan;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning zimmasiga o‘qishga yoki ishga kirish, davolanish, yashash yoki ish joyi o‘zgarganligi haqida xabar berish kabi majburiyatlar yuklatiladigan probatsiyaga oid huquqiy munosabatlar davom etishi isbotlangan;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarni tarbiyalash va tuzalish yo‘liga o‘tkazish tadbirlarini amalga oshirish hamda probatsiya nazorati jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarga qo‘llanilishi isbotlangan;

mahkumlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar dinamikasini tahlil qilish, ularning xulq-atvoridagi ijobiy indikatorlarni barvaqt aniqlash mexanizmini ishlab chiqish, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni erta aniqlash amaliyotini joriy qilish asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasiga mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi hamda *mahkum axloqan tuzalgan* deb topishga asos bo‘luvchi holatlar tushunchasiga aniqlik kiritilib, ularning ro‘yxati shakllantirildi;

o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinganlarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlari va asoslarini takomillashtirish, jazoning o‘talmagan qismida sud tomonidan ularning zimmasiga *majburiyatlar yuklatishni joriy qilish* haqida taklif ishlab chiqildi;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni *muayyan huquqdan mahrum qilish* va *majburiy jamoat ishlari* jazolariga hukm qilingan shaxslarga ham qo‘llash haqidagi taklif ishlab chiqildi;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni *jinoyatlar tasnifi*, *aybning shakli* va *jazo turi* hamda *shaxslar toifasini* inobatga olgan holda qo‘llashni joriy etish haqida taklif ishlab chiqildi;

mahkum jazodan ozod qilish shartlarini (majburiyat va nazorat talablarini) buzsa, o‘talmagan jazoning o‘tash muddati mahkum *majburiyatlarni bajarishni to‘xtatgan kundan boshlab hisoblanishi* lozimligi asoslantirildi;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan mahkumning hukm qilingan jinoyati uchun *sudlanganlik muddati tugashi* bilan jazoning o‘talmagan qismi *yakunlanishi*, xulq-atvori ustidan *nazorat (probatsiya) to‘xtatilishi* va *majburiyatlar bekor bo‘lishi* lozimligi asoslantirildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishida foydalanilgan nazariy ma’lumotlar, qonunni qo‘llash amaliyoti, sud hujjatlari (121 ta sud ajrimi), 223 nafar amaliyotchi-xodim o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnomalar o‘tkazilgani,

statistika hisobotlari va sud amaliyoti materiallari rasmiy manbalardan olingani va hujjat bilan taqdim etilgani, xorijiy tajriba va milliy qonun hujjatlarining o‘zaro tahlil qilingani, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar jinoyat huquqi nazariyasi rivojlanishiga, yuridik oliy ta’lim muassasalarida jinoyat huquqi fanidan dars o‘tish hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda, shuningdek, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid nazariy tushunchalarni boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishda, O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hamda Oliy sud Plenumi qarorlarini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ilmiy tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

sud mahkumga nisbatan belgilangan probatsiya choralarida nazarda tutilgan taqiq va majburiyatlarni yoki ulardan birini yuklash haqidagi taklifi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Jinoyat kodeksi loyihasining 85-moddasi to‘rtinchi qismini, 97-moddasi beshinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2025-yil 24-dekabrdagi 27/2-391-25-sonli Dalolatnomasi). Ushbu taklif jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan mahkumlarning xulq-atvori ustidan nazorat qilishning yangi mexanizmlarini joriy etishga xizmat qilgan;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsga nisbatan sud tomonidan muayyan turdagi shartlar, talablar va majburiyatlar yuklatilgan holda belgilangan muddat davomida nazorat o‘rnatilishi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-938-son “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonuni 3-moddasi to‘rtinchi xatboshisini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 2-dekabrdagi 3/dn-244-sonli Dalolatnomasi). Ushbu taklifning joriy etilishi jazodan shartli ozod qilingan mahkumlar xulq-atvori ustidan nazorat o‘rnatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishiga xizmat qilgan;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxsning zimmasiga o‘qishga yoki ishga kirish, davolanish, yashash yoki ish joyi o‘zgarganligi haqida xabar berish kabi majburiyatlar yuklatilib, probatsiyaga oid huquqiy munosabatlar davom etishi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 7-avgustdagi O‘RQ-938-son “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonuni 71-moddasi 1-bandi 3-kichik bandini (O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-moddasiga kiritilgan beshinchi qismi matni va ushbu qismdagi 5 ta kichik band matnini) shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlar institutining 2025-yil 2-dekabrdagi 3/dn-244-sonli Dalolatnomasi). Ushbu takliflarning joriy etilishi mahkumlarni axloqan tuzatish va jamiyatga moslashtirishning usul va vositalari ishlab chiqilishiga xizmat qilgan;

jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarni tarbiyalash va tuzalish yo‘liga o‘tkazish tadbirlarini amalga oshirish, probatsiya nazorati jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarga qo‘llanilishi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 19-iyuldagi 403-son buyrug‘i (20.08.2025-y. № 3670) bilan tasdiqlangan Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 1-bandi uchinchi va to‘rtinchi xatboshilari tahririda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2025-yil 4-dekabrdagi 2/6376-sonli Dalolatnomasi). Ushbu takliflarni joriy etilishi jazoning o‘talmagan qismi davomida mahkumlar xulq-atvori ustidan nazorat olib borishning yangi usul va vositalari qo‘llanilishiga, jazodan shartli ozod qilingan mahkumlarni probatsiya nazoratiga olish mexanizmi amaliyotga tatbiq etilishiga xizmat qilgan;

mahkumlar xulq-atvoridagi o‘zgarishlar dinamikasini tahlil qilish, ularning xulq-atvoridagi ijobiy indikatorlarni barvaqt aniqlash mexanizmini ishlab chiqish, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar xulq-atvoridagi salbiy o‘zgarishlarni erta aniqlash va oqilona muddatda tegishli munosabat bildirish amaliyotini joriy qilish haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2025-yil 19-iyuldagi 403-son buyrug‘i (20.08.2025-y. № 3670) bilan tasdiqlangan Probatsiya nazoratidagi shaxslarning xulq-atvori ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi yo‘riqnomaning 143-bandi matni tahririda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 2025-yil 4-dekabrdagi 2/6376-sonli Dalolatnomasi). Ushbu takliflar jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslarning xulq-atvorini o‘rganish va tahlil qilish, monitoring qilish va baholash hamda tegishli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish tizimi yo‘lga qo‘yilishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta (6 ta xalqaro, 2 ta respublika) ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy maqola (8 tasi dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy jurnallarda, 4 tasi xorijiy nashrlarda, 8 tasi xalqaro va respublika ilmiy-amaliy konferensiyalari to‘plamlarida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tuzilishi kirish, 7 paragrafdan iborat uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 145 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, joriy qilinishi, aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining tavsifi va rivojlanish tarixi”** deb nomlanib, unda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning ilmiy-nazariy tavsifi va ijtimoiy zaruriyati hamda bu boradagi konseptual yondashuvlar o‘rganilgan, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning vujudga kelishi, shakllanish tendensiyalari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning ilmiy-nazariy jihatlari va ijtimoiy zaruriyati o‘rganilgan, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning huquqiy va ilmiy-nazariy tavsifi yoritilgan. Mamlakatimizda 2023-yilda 33 612 nafar (60 foiz), 2024-yilda 33 151 nafar (54 foiz), 2025-yilda 35 572 nafar (55 foiz), 2026-yilning birinchi yarmida 5 528 nafar shaxs jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinganligi,[1] jazoni o‘tayotgan shaxslarning o‘rtacha 40 foiziga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilishi ushbu institutni bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq etish ijtimoiy zarur ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning mazmun-mohiyati va huquqiy tavsifi yuzasidan qonunchilikka berilgan sharhlar, tadqiqot ishlarida hamda xorijiy manbalarda bayon etilgan tushunchasiga oid yondashuvlar tahlil qilingan. Jinoyat kodeksida jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning maqsadi va mazmunini ifodalaydigan mukammal ta’rif berilishi lozim degan xulosaga kelingan. Bu borada o‘tkazilgan ijtimoiy so‘rovnoma natijasida respondentlarning 82 foizi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish tushunchasiga huquqiy ta’rif berilishi lozimligini e’tirof etgan. Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutiga ta’rif berishda bu borada olimlar (M.Rustambayev, M.Usmonaliyev, I.Usmanov, E.Turg‘unboyev, D.Xalilov) tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar o‘rganib chiqilgan.

Shunga ko‘ra, ushbu paragrafda *“Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish – mahkum jazoni o‘tashi davomida axloqan tuzalganligini ko‘rsatuvchi holatlar mavjudligi jazoni o‘tashni davom ettirishni taqozo qilmasa, sud tomonidan mahkumga nisbatan jinoyat qonunchiligida belgilangan muddatlar va shartlar asosida qo‘llaniladigan jazodan ozod qilish turlaridan biri”* deb mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning ilmiy-nazariy tavsifi va o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan nazariy xulosalarni ishlab chiqishda xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ushbu institutning nazariy va amaliy jihatlari (D.Sherba), yuridik tavsifi (O.Pipilenko), evolyutsion rivojlanishi (M.Bogdanov), qonunchilik tahlili (I.Badamshin), ayrim jazo turlariga qo‘llanilishi (D.Gorbach, I.Yevtushenko), sinov davrining xususiyati (L.Chuprina), majburiyatlar bajarilishi nazorati (A.Ribakov), mintaqalar misolida qo‘llanilishi (A.Tit, T.Sharipov) borasida olib borilgan tadqiqotlarda ilgari surilgan yondashuvlar o‘rganilib, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning *o‘ziga xos xususiyatlari* hamda *zamonaviy tavsifi* yuzasidan nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosalar ishlab chiqilgan.

[1] Sudlar faoliyati bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar (jinoyat ishlari). www.stat.sud.uz.

Ikkinchi paragrafda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan, ushbu amaliyotning rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan. Bu borada jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning shakllanishi va rivojlanishiga oid tadqiqot ishlari, shuningdek jinoyat huquqiga oid tarixiy manbalar va hujjatlar tahlil qilingan. Garchi jazo institutiga oid tadqiqot ishlarida ushbu institutning shakllanish va rivojlanishi bosqichlari uzoq tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganilgan bo‘lsa-da, aynan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyoti o‘zining tub mohiyatiga ko‘ra XX asrdan boshlab o‘rganilishi maqsadga muvofiqligi ilgari surilgan.

Javobgarlik va jazodan ozod qilishning ayrim turlari shakllanish va rivojlanish tarixi bo‘yicha B.Adilov, D.Payziyev, M.Akramova, Y.Shatankova kabi olimlarning tadqiqot ishlarida bayon etilgan nazariy qarashlar tahlil qilingan. Tadqiqot ishida mamlakatimizda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish amaliyoti shakllanishi va rivojlanishini *uch bosqichga* bo‘lgan holda o‘rganish, jumladan *birinchi davr* – 1926-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi amalda bo‘lgan 1926-1959-yillar, *ikkinchi davr* – 1959-yilda qabul qilingan O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksi amalda bo‘lgan 1959-1994-yillar, *uchinchi davr* – 1994-yilda qabul qilingan mustaqil O‘zbekiston Jinoyat kodeksi amalda bo‘lgan 1994-yildan hozirgacha bo‘lgan bosqichlarni o‘rganish lozimligi ta’kidlangan.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan holda ushbu amaliyot o‘zining maqsadi va mazmun-mohiyati hamda bugungi kun talabiga mos ravishda lozim darajada takomillashtirilmaganligi ilgari surilgan. Xususan, bugungi kunga qadar jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni takomillashtirish borasida 9 ta qonun qabul qilinib, ushbu qonunlar asosida Jinoyat kodeksining 73-moddasiga 21 ta o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilgan bo‘lib, ushbu moddaning 7 ta bandiga o‘zgartirishlar kiritilgan, 7 ta bandiga qo‘shimchalar kiritilgan, 4 ta bandidagi ayrim so‘zlar chiqarib tashlangan.

Mazkur institut og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarning oldini olish hamda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish vositalaridan biri sifatida xizmat qilganligi, jazoni o‘tashning minimal muddatlarini uzaytirish va qo‘llamaslik shartlarini kengaytirish hisobiga takomillashib kelganligi bu borada yangi tadqiqotlar olib borish zaruriyatini yuzaga keltirganligi asoslantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlari va asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlarining tavsifi, ularni qo‘llash asoslari va shartlarini takomillashtirish, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinganlarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish masalalari tadqiq etilgan.

Birinchi paragrafda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlarining huquqiy tavsifi va o‘ziga xos jihatlari yoritilgan va mahkumni axloqan tuzalgan deb topish asoslarini belgilash masalalari o‘rganilgan. Bu borada jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlarini belgilashga oid tadqiqotlar, xorijiy mamlakatlar tajribasi va sud amaliyoti materiallari tahlil

qilingan. Mahkumning axloqan tuzalganlik mezonlariga ko‘ra jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish borasida takliflar ishlab chiqishda I.Yefrimova, O.Makarova, O.Pipilenko, E.Turg‘unboyevlarning fikrlari tahlil qilingan.

Jazodan shartli ozod qilishda mehnatga halol munosabatda bo‘lganlik va jazo turlari uchun o‘rnatilgan tartib qoidalarga rioya qilganlik tushunchalari batafsil tahlil qilingan. Mehnatga halol munosabatda bo‘lganlik va jazo turlari uchun o‘rnatilgan tartib qoidalarga rioya qilganlik bu rag‘batlantiruvchi vositalar emas, balki jazoni o‘tash tartibi hisoblanganligi bois, ushbu talablar mahkumning axloqan tuzalganligini ko‘rsatuvchi belgilar hisoblanmaydi degan xulosaga kelingan.

Jinoyat qonunchiligida shaxs o‘z aybiga iqror bo‘lsa, jabrlanuvchi bilan yarashsa va yetkazilgan zararni bartaraf etsa (JK 66^1-modda), namunali xulqi, mehnatga yoki o‘qishga halol munosabati bilan o‘zini ko‘rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo‘qotsa (JK 70-moddasi), o‘z qilmishiga amalda pushaymon bo‘lgan taqdirda (JK 71-moddasi) shaxs javobgarlik va jazodan ozod qilinishi belgilangan. Biroq, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda mahkumning aybiga iqrorlik yoki qilmishiga pushaymonlik bildirganligi mezon sifatida belgilanmagan. Jazodan shartli ozod qilishda mehnatga halol munosabatda bo‘lganlik va jazo turlari uchun o‘rnatilgan tartib qoidalarga rioya qilganlik mezonlari ayrim turdagi jazolarning xususiyatiga mos kelmasligi munozarali holatlarni yuzaga keltirishi, ushbu mezonlar jazoni o‘tash tartibini ifodalashi ta’kidlangan.

Ijtimoiy so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, respondentlarning 76 foizi yetkazilgan zararni qoplaganlik, 30 foizi o‘qish yoki ishga kirganlik yoxud o‘quv yoki kasb o‘rgatish kurslarida o‘qiganlik, 27 foizi muayyan yutuqlarga erishganlik, 41 foizi davlat yoki jamiyat uchun foyda keltirganlik uchun jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mezonlari sifatida belgilanishini ma’qullagan. Shunga ko‘ra, mahkumni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash uchun uni axloqan tuzalgan deb topishga asos bo‘luvchi mezonlarni belgilaydigan normalarni joriy etish lozimligi asoslantirilgan.

Mazkur bobning *ikkinchi paragrafida* jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari va shartlari tahlil qilinib, shaxsni jazodan shartli ozod qilishda o‘talishi lozim bo‘lgan jazo muddatlarini belgilashda jinoyatlar tasnifi va aybning shakli, ayrim turdagi jinoyatlarning o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi jazodan ozod qilishning ushbu turini maqsadli va asosli qo‘llash imkoniyatini yaratishi ilgari surilgan.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari yuzasidan O.Makarovaning axloqan tuzalgan bo‘lishni taqozo qilishi, A.Potapovaning ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lishi, Y.Morozovaning asosiy holat sifatida e’tirof etilishi haqidagi ilmiy-nazariy yondashuvlari inobatga olingan. Shuningdek, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun *o‘talishi lozim bo‘lgan jazoning minimal muddatlariga oid normalarning* jinoyat qonunchiligidagi insonparvarlik (JK 7-moddasi) va odillik (JK 8-moddasi) prinsiplariga, jinoyatlarni tasniflashga (JK 15-moddasi), aybning shakllariga (JK 21–22-moddalari), jazo tizimiga (JK 43-moddasi), jazolarni qo‘shishning hisoblash qoidalariga (JK 61-moddasi) muvofiqligi tahlil qilingan.

Jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan ko‘rib chiqilgan ishlar jinoyatlar tasnifi kesimida tahlil qilinganda, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslar 2023-yilda 31 148 (42 foiz), 2024-yilda 31 212 (40 foiz), 2025-yilda 31 069 (39 foiz), 2026-yil 1-yarmida 22 066 (44 foiz), uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat sodir etgan shaxslar 2023-yilda 18 227 (25 foiz), 2024-yilda 19 688 (25 foiz), 2025-yilda 20 668 (26 foiz), 2026-yil 1-yarmida 11 428 (23 foiz)ni tashkil etgan.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid sud amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, jami ko‘rib chiqilgan jinoyat ishlarida ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha ko‘rilgan ishlarning ulushi o‘rtacha 40 foizni, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar bo‘yicha ko‘rilgan ishlarning ulushi o‘rtacha 25 foizni tashkil etgan.

Mazkur ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlarni sodir etganlik uchun hukm qilingan mahkumlarning bir xil minimal muddatni o‘tashi belgilanganligi adolat va tenglik tamoyillariga muvofiq emasligi ilgari surilib, jazoni o‘tashdan shartli ozod qilish *jinoyatlar tasnifidan* kelib chiqqan holda *alohida-alohida qo‘llanilishi* maqsadga muvofiq deb topilgan. Ijtimoiy so‘rovnoma natijalarida ham respondentlarning 64 foizi ushbu taklifni ma’qullagan.

Shuningdek, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash uchun hukm qilingan jinoyat qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilganligidan qat’i nazar bir xil muddat belgilanganligi adolat mezonlariga zid kelishi, shuning uchun jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash uchun minimal muddatlarni belgilash *aybning shakllaridan (qasd yoki ehtiyotsizlikdan)* kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozimligi ilgari surilgan. Bu borada ilgari surilgan taklif bo‘yicha soha mutaxassislari ishtirokida so‘rovnoma o‘tkazilganda, respondentlarning 81 foizi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash uchun minimal muddatlar ayb shakllaridan kelib chiqqan holda belgilanishini ma’qullagan.

Qayd etilganlarga ko‘ra, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilmaydigan shaxslar toifasi hamda jinoyatlar turlari tahlil qilinib, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llamaslik shartlari yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tomonidan tushuntirishlar berilishi haqida taklif ishlab chiqilgan.

Uchinchi paragrafda o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinganlarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llashning o‘ziga xos xususiyatlari bayon etilib, jazoning o‘talmagan qismi davomida ularni axloqan tuzatish chorasi sifatida sud tomonidan muayyan majburiyatlar yuklash amaliyotini joriy etish masalalari muhokama qilingan.

Sudlangan voyaga yetmaganlar soni 2023-yilda 1 911 nafar, 2024-yilda 2 214 nafar, 2025-yilda 2 431 nafarni tashkil etib, 2026-yilning 1-yarmida 1 730 nafarni tashkil etgan. 2025-yilda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga taqdim qilish doirasida tushadigan voyaga yetmaganlardan axloq tuzatish ishlariga hukm qilinganlar 39 nafarni, ozodlikni cheklash jazosiga hukm qilinganlar 1329 nafarni (55 foizni), ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm

qilinganlar 377 nafarni (15 foizni),[1] tashkil etgan bo‘lib, jami hukm qilingan voyaga yetmaganlarning 1 745 nafari yoki 72 foizi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash amaliyoti doirasiga tushadi.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash jami hukm qilinganlarning o‘rtacha 40 foiziga to‘g‘ri kelsa, o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan jinoyat sodir etganlik uchun hukm qilinganlarning o‘rtacha 70 foiziga to‘g‘ri kelishiga oid statistik ma’lumotlar hamda voyaga yetmaganlarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish borasidagi Z.Turabayeva, L.Yakovleva, V.Stepanov, A.Gorshenin, K.Dolgopolovlar fikrlari tahlil qilingan. O‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan sodir etgan jinoyati uchun hukm qilinganlarga nisbatan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash mezonlari, asoslari va shartlarini takomillashtirish lozimligi ta’kidlangan.

Sudlarda jinoyat ishlari ko‘rib chiqilishi statistikasiga ko‘ra, 2023-yilda 725 nafar, 2024-yilda 831 nafar, 2025-yilda 1 032 nafar, 2026-yilning 1-yarmida 520 nafar voyaga yetmagan jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan. Probatsiya bo‘linmalari tomonidan 2023-yilda 727 nafar (-104), 2024-yilda 766 nafar (-65), 2025-yilda 798 (-234)[2] nafar voyaga yetmaganlar probatsiya nazorati ostiga olingan bo‘lsa-da, ularni axloqan tuzatish va jinoyat sodir etishining oldini olishga qaratilgan mukammal mexanizm (majburiyat yuklash amaliyoti) mavjud emas degan xulosaga kelingan.

Ijtimoiy so‘rovnomalar natijalariga ko‘ra respondentlarning 68 foizi voyaga yetmaganlarga ishga yoki o‘qishga kirish, o‘quv yoki kasb o‘rgatish kurslarida o‘qish majburiyatini yuklashni, 6 foizi katta yoshdagilarga yuklatilgan majburiyatlardan birini yuklash lozimligini bildirgan.

Mazkur paragraf doirasida amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, voyaga yetmaganlar hukm qilingan jazoni o‘tash muddati davomida voyaga yetsa-da, ularni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish JK 73-moddasi emas, balki 89-moddasi ta’siriga tushishi asoslantirilib, ularning xulq-atvorini baholash va axloqan tuzatishga xizmat qiladigan majburiyatlar yuklash amaliyotini katta yoshdagilar (JK 73-moddasi) uchun belgilangan tartiblarga moslashtirish lozimligi ilgari surilgan.

Dissertatsiyaning **“Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilikni takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy mamlakatlar tajribasida jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti tahlil qilingan, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Mazkur bobning *birinchi paragrafida* xorijiy mamlakatlarda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti o‘rganilgan, shuningdek mahkumlar huquqlariga oid xalqaro standartlar hamda xalqaro tashkilotlar tavsiyalari tahlil qilingan.

---

[1] Sudlar faoliyati bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar (jinoyat ishlari). www.stat.sud.uz.

[2] O‘zbekiston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Probatsiya boshqarmasining 05.06.2026-yildagi 41/628-sonli xati.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish borasidagi Ispaniya va Yaponiya davlatlari, Italiya, Polsha va Moldova respublikalari jinoyat qonunchiligida mahkum xulq-atvorining holati, Fransiya, Janubiy Koreya, Latviya, Ukraina va Armaniston respublikalari jinoyat qonunchiligida axloqan tuzalganlik, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Gruziya respublikalari jinoyat qonunchiligida jazoni o‘tashni davom ettirishga ehtiyoj mavjud emasligiga oid normalar bayon etilgan.

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston, Belarus va Moldovada yetkazilgan zararni qoplaganlik, Qirg‘iziston, Germaniya va Latviyada jazo davrida mahkumning shaxsiyati va xatti-harakatlari, Turkiya, Ispaniya, Avstriyada mahkumning intizomi va xulq-atvoridagi ijobiy o‘zgarishlar, Buyuk Britaniya, Fransiya va Armanistonda rag‘batlantirishlar mavjudligi, ta’lim dasturlarida, sport yoki madaniy tadbirlarda yoki havaskor uyushmalarda ishtirok etishi, ishlash, mashg‘ulotlarda qatnashish, mahkumning o‘zi sodir etgan jinoyatga munosabati, shaxsiy rivojlanish faoliyatida ishtirok etish, ruhiy salomatlik, ijtimoiy reabilitatsiya va davolanish kurslarida ishtiroki axloqan tuzalganlik mezonlari sifatida inobatga olinadi.

Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Qozog‘iston Respublikalarida ehtiyotsizlik oqibatida jinoyat sodir etgan, ayol, shu jumladan homilador ayol, nogiron, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan farzandi bor yolg‘iz erkak, pensioner mahkumlarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun sud tayinlagan muddatning kamida o‘talishi lozim bo‘lgan muddat boshqa mahkumlarga nisbatan kamroq belgilangan.

Jahon mamlakatlarining aksariyatida shartli ravishda muddatidan oldin ozod qilishni qo‘llash uchun o‘talishi lozim bo‘lgan jazo qismining miqdori jinoyat toifasiga, tayinlangan jazo miqdoriga yoki mahkum shaxsining xususiyatlariga qarab farqlangan holda belgilanadi. Aksariyat xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligiga ko‘ra, agar sud shaxs jazoni to‘liq o‘tashga muhtoj emas, degan xulosaga kelsa (postsovet davlatlarining aksariyati), agar uning yaxshi xulq-atvori keyingi jazo maqsadga muvofiq emasligini ko‘rsatsa (Buyuk Britaniya), agar tarbiyaviy maqsadga erishilgan bo‘lsa (Albaniya), agar mahkumning “ijtimoiy qayta moslashuvi haqida salmoqli ma’lumotlar” mavjud bo‘lsa (Fransiya) shaxs jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga taqdim qilinishi mumkinligi bayon etilgan.

Ikkinchi paragrafda jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyoti samaradorligini oshirish masalalari yoritilib, bu borada qonunchilikda mavjud bo‘shliqlar va ularni bartaraf etishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bayon etilgan. Probatsiya nazoratining jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish bilan uzviy bog‘liqligi borasida nazariy tushunchalar V.Malinin, M.Smirnov, A.Isergapova, T.Altmishev kabi olimlarning fikrlari o‘rganilgan holda bayon etilgan.

JK 73-moddasiga ko‘ra muayyan huquqdan mahrum qilish jazosi muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llaniladigan asosiy jazo turi sifatida ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, sud statistikasida asosiy jazo sifatida 2024-yilda 2 759 nafar, 2025-yilda 2 990 nafar shaxs jazosini o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan bo‘lib,

2024-yilda 349 nafar, 2025-yilda 343 nafar shaxslarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish haqidagi taqdimnomalar rad qilingan. Shunga ko‘ra, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jazo turlari sirasiga kiritish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan.

Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini ko‘rib chiqish statistikasiga ko‘ra, 2024-yilda 295 nafar, 2025-yilda 347 nafar shaxsga nisbatan majburiy jamoat ishlari jazosi tayinlangan, probatsiya bo‘linmalari tomonidan majburiy jamoat ishlari jazosini ijro etish uchun 2023-yilda 149 nafar, 2024-yilda 121 nafar, 2025-yilda 91 nafar shaxs hisobga olingan bo‘lib, ularning xulq-atvori ustidan nazorat o‘rnatilgan. Ijtimoiy so‘rovnoma natijalarida ishtirokchilarning 36 foizi majburiy jamoat ishlari, 51 foizi muayyan huquqdan mahrum qilish jazolaridan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llashni ma’qullaganligi qayd etilgan.

Muayyan huquqdan mahrum qilish va majburiy jamoat ishlari jazolari jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mumkin bo‘lgan jazo turlari sirasiga kiritilgan holda ushbu jazolarga nisbatan ham jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llash maqsadga muvofiq deb topilib, bu borada A.Kafiatulina, S.Kochoi, L.Rojkova kabi olimlarning ilmiy-nazariy fikrlari tahlil qilingan.

Bundan tashqari, mahkumlarning alohida toifalarini, ya’ni pensiya yoshiga yetgan, homilador, uch yoshga to‘lmagan bolasi bor, voyaga yetmagan bolalarni yolg‘iz o‘zi tarbiyalayotgan, birinchi va ikkinchi guruh nogironligi bo‘lgan mahkumlarni jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish imtiyozli shartlar (muddatlar) asosida amalga oshirilishi yuzasidan taklif ishlab chiqilgan. Mazkur taklifni ishlab chiqishda Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi va Qozog‘iston Respublikasi qonunchiligidagi jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishda mahkumlarning alohida toifalari uchun belgilangan imtiyozli muddatlarga oid normalar tahlil qilingan.

Jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo‘llashda mahkumlarning alohida toifalari uchun o‘talishi lozim bo‘lgan minimal muddatlar yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnomada mutaxassislarning 36 foizi pensiya yoshiga yetganlarga, 42 foizi homilador ayollarga, 36 foizi uch yoshga to‘lmagan bolasi borlarga, 34 foizi birinchi yoki ikkinchi guruh nogironligi mavjud shaxslarga, 44 foizi yuqoridagi barcha toifadagi mahkumlar uchun alohida muddatlarni belgilashni joriy etishni ma’qullagan.

Mahkum jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinganda jazoni o‘talmagan qismi bilan sudlanganlik muddatining mutanosibligida bahsli holatlar mavjudligi ta’kidlanib, jazoning o‘talmagan qismi davomida sudlanganlik muddati tugashi jazoning o‘talmagan qismi yakunlanishi va jazo bilan bog‘liq barcha oqibatlar yakunlanishi lozimligi asoslantirilgan.

Shuningdek, jazoni o‘tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxs sud tomonidan o‘z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni o‘talmagan jazo muddati davomida bajarmagan taqdirda o‘talmagan jazoning o‘tash muddati majburiyatlar bajarilishi to‘xtatilgan kundan boshlab hisoblanishi lozimligi ilgari surilgan.

XULOSA

